

“TASDIQLANDI”


“APPROVED”

Akiyadorlarning navbatdagi yillik
Umumiy Yig'ilishi bayoni

By the Minutes of the Annual General Meeting of
Shareholders



29 April 2022



dated April 29, 2022



_____, Andijon shahar davlat xizmatlari ko'rsatish markazi direktori/

_____, Director of Center for the provision of state services of Andijan city

A.Teshaboev, Kuzatuv Kengash Raisi/

A.Teshaboev, Chairman of the Supervisory Board/

“IMKON FINANS mikro kredit tashkiloti”

CHARTER

AKSIYADORLIK JAMIYATI

OF THE JOINT-STOCK COMPANY

USTAVI

“IMKON FINANS mikro kredit tashkiloti”

(Yangi tahrirda)

(New edition)

Andijon – 2022

Andijan - 2022

I. UMUMIY QOIDALAR	I. GENERAL RULES
<p>1.1. Ushbu Ustav O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi, va "Mikrokredit tashkilotlari to'g'risida"gi qonunlari va amaldagi boshqa qonunlari, qonunosti me'yoriy-huquqiy hujjatlari (keyingi o'rinlarda "O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari") asosida ishlab chiqilgan bo'lib, "IMKON FINANS mikrokredit tashkiloti" aksiyadorlik jamiyati (keyingi o'rinlarda "Jamiyat" deb yuritiladi)ning tashkil topishi va faoliyat yuritishi tartibini belgilab beradi.</p>	<p>1.1 This Charter is based on the Civil Code of the Republic of Uzbekistan, the Law "On Joint Stock Companies and Protection of Shareholders' Rights", the Law "On Securities Market" and the Law "On Microcredit Organizations" and other current laws, regulations and legal acts (hereinafter referred to as "the legislation of the Republic of Uzbekistan"), which determines the order of formation and operation of the joint-stock company "IMKON FINANS microcredit organization" (hereinafter referred to as the "company").</p>
<p>1.2. Muqaddam Jamiyat Andijon shahar davlat xizmatlari markazi tomonidan "IMKON FINANS mikrokredit tashkiloti" mas'uliyati cheklangan jamiyati negizida 2020 yil 17 sentyabr kuni 16255 - sonli reestr raqami bilan qayta ro'yhatdan o'tkazgan holda qayta tashkil etilgan. Ushbu Jamiyat ta'sischilari qaroriga muvofiq aksiyadorlik jamiyati maqomiga o'zgartirilgan bo'lib, uning huquqiy vorisi hisoblanadi va ilgari tuzilgan barcha shartnomalar hamda majburiyatlar bo'yicha mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi.</p>	<p>1.2 The former company was reorganized by the Center for the provision of state services of Andijan city on the basis of the limited liability company "IMKON FINANS microcredit organization" on September 19, 2022 with re-registered under registration number 16255. In accordance with the decision of the founders of this company, the status has been changed to the joint-stock company, it is its legal successor and assumes responsibility for all previously concluded contracts and obligations.</p>
<p>1.3. Jamiyat o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi va "Mikrokredit tashkilotlari to'g'risida"gi Qonunlari, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar hamda mazkur Ustavga muvofiq olib boradi.</p>	<p>1.3 The company operates under the Civil Code of the Republic of Uzbekistan, the Law "On Joint Stock Companies and Protection of Shareholders' Rights" (No. ZRU-370 of 06.05.2014), the Law "On Microcredit Organizations" (No. ZRU-53 of 20.09.2006). , other normative legal acts and in accordance with this Charter.</p>
<p>1.4. Jamiyatning to'liq nomi:</p> <ul style="list-style-type: none"> • O'zbek tili lotin alifbosida: "IMKON FINANS mikrokredit tashkiloti" aksiyadorlik jamiyati; • O'zbek tili kirill alifbosida: "IMKON FINANS mikrokredit tashkiloti" акциядорлик жамияти; • Rus tilida: Акционерное общество "IMKON FINANS mikrokredit tashkiloti" • Ingiliz tilida: Joint stock company "IMKON FINANS mikrokredit tashkiloti". • Jamiyatning qisqartirilgan nomi: • O'zbek tili lotin alifbosida: "IMKON FINANS mikrokredit tashkiloti" AJ; • O'zbek tili kirill alifbosida: "IMKON FINANS mikrokredit tashkiloti" АЖ; • Rus tilida: АО "IMKON FINANS mikrokredit tashkiloti"; 	<p>1.4 The full name of the Company:</p> <ul style="list-style-type: none"> • In the Uzbek language, Latin alphabet: "IMKON FINANS mikrokredit tashkiloti" aksiyadorlik jamiyati; • In the Uzbek language, Cyrillic alphabet: "IMKON FINANS mikrokredit tashkiloti" акциядорлик жамияти; • In the Russian language: Акционерное общество "IMKON FINANS mikrokredit tashkiloti" • In the English language: Joint stock company "IMKON FINANS mikrokredit tashkiloti". • Abbreviated name of the Bank: • In the Uzbek language, Latin alphabet: "IMKON FINANS mikrokredit tashkiloti" AJ; • In the Uzbek language, Cyrillic alphabet:

<ul style="list-style-type: none"> • Ingliz tilida: JSC “IMKON FINANS mikro kredit tashkiloti”. 	<p>“IMKON FINANS mikro kredit tashkiloti” AЖK;</p> <ul style="list-style-type: none"> • In the Russian language: AO “IMKON FINANS mikro kredit tashkiloti”; • In the English language: JSC “IMKON FINANS mikro kredit tashkiloti”.
<p>1.5. Jamiyat Ustavi qoidalari va Jamiyatning Aksiyadorlar Umumiy Yig'ilishi, Kuzatuv Kengashi, Boshqaruvi qarorlari asosida qabul qilingan Jamiyating tasdiqlangan ichki hujjatlari o'rtasida ziddiyatlar vujudga kelgan taqdirda, mazkur Ustav ustunlik qiladi. Ushbu Ustav o'zbek va ingliz tillarida tuzilgan va tasdiqlangan. Ikki tildagi matnlar o'rtasida nomuvofiqlik yuzaga kelgan taqdirda, o'zbek tili lotin alifbosidagi matn ustunlik qiladi.</p>	<p>1.5 In the event of a conflict between the provisions of the Company's Charter and the approved internal documents of the Company adopted on the basis of decisions of the General Meeting of Shareholders, the Supervisory Board, the Management Board, this Charter shall prevail. This Charter was made and approved in Uzbek and English languages. In case of discrepancies between the two languages, the Uzbek Latin alphabetic language shall prevail.</p>
<p>1.6. Jamiyatning joylashgan manzili (pochta manzili): Andijon viloyati, Andijon shahri, A.Temur shoh ko'chasi, 44-a uy, pochta indeksi: 170100.</p> <ul style="list-style-type: none"> • Jamiyatning elektron pochta manzili: info@imkonfinans.uz • Jamiyatning rasmiy veb-sayti: www.imkonfinans.uz 	<p>1.6 Location of the company (postal address): Andijan region, Andijan city, A.Temur high street, 44-a, postal code: 170100.</p> <ul style="list-style-type: none"> • The e-mail address of the company: info@imkonfinans.uz • The official website of the Society: www.imkonfinans.uz
<p>1.7. Jamiyat faoliyat muddati cheklanmagan bo'lib, u o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki litsenziyasi asosida amalga oshiradi.</p>	<p>1.7 The term of activities of the company shall be unlimited in period and it shall operate on the basis of a license given by the Central Bank of the Republic of Uzbekistan.</p>
<p>1.8. Jamiyat belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan filiallar, vakolatxonalar, xizmat ko'rsatish ofislari va alohida bo'linmalar ochishi mumkin. Filial Jamiyat joylashgan yerdan tashqarida joylashgan hamda uning barcha vazifalarini yoki ularning bir qismini, shu jumladan vakolatxonaning vazifalarini amalga oshiradigan alohida bo'linmasidir.</p> <p>Filial va vakolatxonalar Jamiyat Kuzatuv kengashi yig'ilishi qaroriga muvofiq tashkil qilinadi hamda ular joylashgan yuridik manzildagi davlat xizmatlari markazi tomonidan ro'yhatdan o'tkazilgan Nizom asosida ish yuritadi. Jamiyatning filial va vakolatxonalariga berib qo'yilgan mol-mulki Jamiyatning balansida hisobga olinadi.</p>	<p>1.8 The company may open its branches, representative offices, service offices, and subsidiaries within the Republic of Uzbekistan in the order prescribed by the legislation without delegating the rights of a legal entity. A branch is a separate subdivision of a company located outside the place where the company is located and performing all or part of its functions, including the functions of a representative office.</p> <p>A branch and representative office of the Company are organized by the Supervisory board of the company and operate on the basis of the Charter registered by the Center for the provision of state services at the legal address where the branch and representative office are located. The property of the Company allotted to the branch and representative offices is maintained on the balance sheet of the Company.</p>
<p>1.9. Jamiyat qonun hujjatlariga muvofiq sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlariga ega bo'lishi mumkin.</p>	<p>1.9 The Company may have subsidiaries and affiliates in accordance with the legislation.</p>
<p>1.10. Jamiyat o'z nomidan foydalanishda mutlaq</p>	<p>1.10 The Company has the exclusive right to use its</p>

<p>huquqga ega. Jamiyat o'zining nomi davlat tilida yozilgan hamda joylashgan yeri ko'rsatilgan yumaloq muhrga, shtampga, blankalarga, o'z emblemasiga va boshqa vizual o'ziga xosligini belgilovchi vositalarga egadir.</p>	<p>name. The company has its corporate name indicating its legal form, emblem, trademark as well as a round seal with its full corporate name and other means of visual identification, stated in its national language.</p>
<p>1.11. Aksiyalarning haqini to'liq to'lamagan aksiyadorlar jamiyatning majburiyatlari yuzasidan o'zlariga tegishli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.</p>	<p>1.11 Shareholders who have not paid all the shares shall be jointly and severally liable for the company's obligations within the unpaid part of the value of their shares.</p>
<p>1.12. Jamiyat o'z majburiyatlari yuzasidan o'ziga qarashli barcha mol-mulk bilan javobgar hisoblanib, o'z aksiyadorlari majburiyatlari yuzasidan esa javobgar hisoblanmaydi.</p>	<p>1.12 The company is liable for its obligations with all its property, and is not liable for the obligations of its shareholders.</p>
<p>1.13. Jamiyatning mol-mulki unga mulk huquqi asosida tegishli bo'lib, Jamiyat aksiyalarini joylashtirishdan tushgan mablag'lar, asosiy fondlar va aylanma mablag'lar, ko'char va ko'chmas mulklar, qimmatli qog'ozlar, olingan daromad, qonun hujjatlari bilan ta'qiqlanmagan boshqa asoslarda olingan boshqa mol-mulkardan tashkil topadi.</p>	<p>1.13 The company's property belongs to it on the basis of property rights and consists of proceeds from the placement of shares of the company, fixed assets and working capital, movable and immovable property, securities, income received, other property received on other grounds not prohibited by law.</p>
<p>1.14. Jamiyat yuridik shaxs bo'lib, u o'z mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulkka, shu jumladan o'zining ustav fondiga (ustav kapitaliga) berilgan mol-mulkga ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi hamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.</p>	<p>1.14 The company is a legal entity, has separate property, which is taken into account in its independent balance sheet, can receive and exercise property and personal non-property rights on its own behalf, taking obligations, be a plaintiff and defendant in court.</p>
<p>1.15. Jamiyat belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida bank hisobvaraqlari ochishga haqlidir.</p>	<p>1.15 The company has the right to open bank accounts in the territory of the Republic of Uzbekistan and abroad in the prescribed manner.</p>
<p>II. JAMIYATNING FAOLIYAT SOHASI (ASOSIY YO'NALISHLARI) MAQSADI VA VAZIFALARI</p>	<p>II. FIELD OF ACTIVITY OF THE COMPANY (MAIN DIRECTIONS) ITS GOALS AND OBJECTIVES</p>
<p>2.1. Jamiyat tijorat tashkiloti bo'lib, uning asosiy faoliyat sohasi (asosiy yo'nalishi)ning maqsadi jamiyatning moliyaviy-xo'jalik faoliyatidan aholi ehtiyojlarini qondirish hisobiga mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish orqali foyda olishdir.</p>	<p>2.1 The company is a commercial organization, the main purpose of which is to benefit from the financial and economic activities of the company through the provision of microfinance services to meet and satisfy the needs of the population.</p>
<p>2.2. Jamiyat asosiy faoliyat yo'nalishidan tashqari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo'lmagan har qanday faoliyat turi bilan shug'ullanishi mumkin.</p>	<p>2.2 In addition to its main activities, the Company can be engaged in any activity that does not contradict the legislation of the Republic of Uzbekistan.</p>
<p>2.3. Jamiyat barcha ishonchli (blankli) kreditlarning ular shakllantirgan ustav fondiga foiz nisbatini mustaqil ravishda belgilaydi.</p>	<p>2.3 The Company independently determines the percentage of all reliable loans (blank) to the charter capital formed by them.</p>
<p>2.4. O'z faoliyat maqsadlariga erishish uchun Jamiyat quyidagi mikromoliyaviy (vazifalarni) xizmatlarni</p>	<p>2.4 In order to achieve its goals, the Company provides the following microfinance (tasks)</p>

<p>amalga oshiradi:</p> <ul style="list-style-type: none"> • mikrokreditlar yoki mikroqarzlar berish; • qarz majburiyatlarini sotib olish va sotish (faktoring); • jamiyat lizing beruvchi sifatida ishtirok etadigan mikrolizing berish (moliya ijara); • qonunchilikka muvofiq boshqa turdagi mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish, shu jumladan iste'mol kreditlari berish; • korporativ obligatsiyalarni chiqarish va ularni investorlar o'rtasida joylashtirish; • banklar, sug'urta kompaniyalari va boshqa moliya tashkilotlarning agenti sifatida agentlik xizmatlarini faqat naqdsiz shaklda ko'rsatish va agentlik bitimining mavjudligi to'g'risida axborotlarni oshkor qilish, shuningdek, jinoiy faoliyatlardan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha qonun hujjatlari normalarini bajarish sharti bilan qatnashish; • makroprudensial nazorat doirasida belgilangan normalarga rioya qilinishini ta'minlaydigan hajmlarda kreditlarni (qarzlarni) jalb qilish; • chakana xizmatlar, shu jumladan naqdsiz shaklda ko'rsatiladigan mikromoliyaviy xizmatlar markazlarini O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankini xabardor qilgan holda ochish; • jamiyat mikrokreditlar, mikroqarzlar, mikrolizing berish va boshqa mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq maslahat va axborot xizmatlari ko'rsatish mumkin. 	<p>services:</p> <ul style="list-style-type: none"> • In order to achieve its goals, the company provides the following microfinance (functions) services: • issuance of microcredits or microloans; • purchase and sale of debt obligations (factoring); • microleasing (financial leasing) in which the company participates as a lessor; • provision of other types of microfinance services, including consumer loans in accordance with the legislation; • issuance of corporate bonds and their placement among investors; • Provision of agency services only as a cashless agent of banks, insurance companies and other financial institutions and disclosure of information on the existence of an agency agreement, as well as compliance with legislation on combating money laundering, terrorist financing and proliferation of weapons of mass destruction to participate with; • attraction of loans (borrowings) in the amounts that ensure compliance with the established norms within the framework of macroprudential control; • opening of centers for retail services, including non-cash microfinance services, with notification of the Central Bank of the Republic of Uzbekistan; • The company can provide consulting and information services related to the provision of microcredits, microloans, microleasing and other microfinance services.
<p>2.5. Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda jamiyat mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan berilgan litsenziyaga muvofiq amalga oshiradi.</p>	<p>2.5 In cases provided by the legislation, the company provides microfinance services in accordance with the license issued by the Central Bank of the Republic of Uzbekistan.</p>
<p>2.6. Amalga oshirish uchun maxsus ruhsatnomalar (litsenziyalar) talab etiladigan faoliyat turlari qonunchilikda belgilangan tartibda litsenziyalar berilganidan so'ng amalga oshiriladi.</p>	<p>2.6 Activities that require special permits (licenses) for implementation are carried out after the issuance of licenses in the manner prescribed by the law.</p>
<p>2.7. Jamiyat o'z obligatsiyalarini muomalaga chiqarishga haqli.</p>	<p>2.7 The company has the right to issue its own corporate bonds.</p>
<p>III. USTAV KAPITALINING MIQDORI, UNI KO'PAYTIRISH VA KAMAYTIRISH TARTIBI</p>	<p>III. AMOUNT OF THE CHARTER CAPITAL, PROCEDURE FOR INCREASING AND REDUCING THE AMOUNT CHARTER CAPITAL</p>
<p>3.1. Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyadorlar</p>	<p>3.1 The company's charter fond (charter capital)</p>

<p>olgan jamiyat aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi va O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida ifodalangan. Jamiyat tomonidan chiqariladigan barcha aksiyalarning nominal qiymati bir xildir.</p>	<p>consists of the nominal value of the company's shares received by shareholders and is denominated in the national currency of the Republic of Uzbekistan. The nominal value of all shares issued by the Company is the same.</p>
<p>3.2. Jamiyatning ustav kapitali 7 204 000 000 (yetti milliard ikki yuz to'rt million) so'mni tashkil etib, har bir aksiyaning nominal qiymati 1 000 (bir ming) so'm bo'lgan 7 204 000 (yetti million ikki yuz to'rt ming) dona oddiy egasining nomi yozilgan aksiyalarga bo'lingan aksiyalardir.</p>	<p>3.2 The charter capital of the Company is 7 204 000 000 (seven billion two hundred and four million) soums, and the shares are divided into 7 204 000 (seven million two hundred and four thousand) ordinary registered shares with a nominal value of 1,000 (one thousand) soums per share.</p>
<p>3.3. Jamiyat quyidagilar hisobidan mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatadi:</p> <ul style="list-style-type: none"> • o'z mablag'lari, shu jumladan olgan daromadlari; • investorlar, shu jumladan chet ellik investorlar tomonidan investitsiya shartnomalari asosida berilgan mablag'lar; • banklarning kreditlari va davlat maqsadli jamg'armalarining mablag'lari; • xalqaro moliya institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlarining, shu jumladan chet el nodavlat notijorat tashkilotlarining grantlari va qarz mablag'lari; • obligatsiyalar joylashtirishdan olingan mablag'lar; • qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar. 	<p>3.3 The company provides microfinance services at the expense of:</p> <ul style="list-style-type: none"> • own funds, including income; • funds provided by investors, including foreign investors on the basis of investment agreements; • loans from banks and state trust funds; • grants and loans from international financial institutions, non-governmental non-profit organizations, including foreign non-governmental non-profit organizations; • fundings from the placement of bonds; • Other sources not prohibited by law.
<p>Ustav kapitalini ko'paytirish:</p>	<p>Increase of the charter capital:</p>
<p>3.4. Jamiyatning ustav kapitali qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirilishi mumkin. Qo'shimcha aksiyalar faqat Jamiyat Ustavida belgilangan, e'lon qilingan aksiyalarning soni doirasida jamiyat tomonidan joylashtirilishi mumkin.</p>	<p>3.4 The charter capital of the company can be increased by placing additional shares. Additional shares may be placed by the company only within the number of shares specified and declared in the company's charter.</p>
<p>3.5. Qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan Jamiyat Ustav kapitalini ko'paytirish va shu yuzasidan Jamiyat Ustaviga tegishli o'zgartirishlarni kiritish to'g'risidagi qaror aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.</p> <ul style="list-style-type: none"> • Jamiyatning tegishli boshqaruv organi tomonidan qabul qilingan qo'shimcha aksiyalarni chiqarish haqidagi qaror Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish to'g'risidagi qarordir. • Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish jalb qilingan investitsiyalar, Jamiyatning o'z kapitali va hisoblangan dividendlar hisobidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshirilishi mumkin. 	<p>3.5 The decision to increase the charter capital of the Company by placing additional shares and to make amendments over the Company's Charter on this basis shall be made by the General meeting of Shareholders.</p> <ul style="list-style-type: none"> • The decision to issue additional shares made by the relevant governing body of the company is considered as a decision to increase the charter capital of the company. • The charter capital of the Company can be increased by placement of additional shares attracting investments, the company's own capital and the accrued dividends in accordance with the established norms and regulations.

<p>3.6. Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitalini) uning o'z kapitali hisobidan ko'patirishda qo'shimcha aksiyalar barcha aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanadi. Bunda har bir aksiyadorga qaysi turdagi aksiyalar tegishli bo'lsa, ayni o'sha turdagi aksiyalar unga tegishli aksiyalar soniga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) ko'paytirilishi natijasida ko'paytirish summasining bitta aksiyaning nominal qiymatiga muvofiqligi ta'minlanmaydigan bo'lsa, Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirishga yo'l qo'yilmaydi.</p>	<p>3.6 In case of increase of the charter capital of the company at the expense of its own capital, additional shares are distributed among all shareholders. In this case, the shares of the same type, which belong to each shareholder, are distributed in proportion to the number of shares owned by him. It is not allowed to increase the charter capital of the company if the increasing amount of the charter capital of the company does not correspond to the nominal value of one share.</p>
<p>3.7. Qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan Jamiyat ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish to'g'risidagi qarorda, joylashtiriladigan qo'shimcha aksiyalarning umumiy qiymati, soni, turi, nominal qiymati, joylashtirish tartibi, usuli, muddati, joylashtirish narxi, aksiyalar uchun to'lov tartibi, amalga oshmagan deb topish ulushi va amalga oshmagan deb topilgan taqdirda aksiyalar uchun qabul qilingan to'lov vositalarini qaytarish tartibi belgilanadi.</p>	<p>3.7 In the decision to increase the charter capital of the Company through the placement of additional shares, the total value, number, type, nominal value of the additional shares to be placed, the order of placement, method, term, placement price, the percentage of non-performing payments and the order of return of means of payment accepted for shares is determined.</p>
<p>3.8. Qo'shimcha chiqarilgan aksiyalar bozor qiymatida, lekin nominal qiymatidan kam bo'lmagan qiymatda joylashtiriladi. Agar Jamiyatning aksiyalari fond birjasining birja kotirovkasi varag'iga kiritilgan bo'lsa, ularning birja kotirovkalari aksiyalarning bozor qiymati deb e'tirof etiladi.</p>	<p>3.8 Additional issued shares are placed at market value, but not less than their nominal value. If the Company's shares are placed in the quoted list of a stock exchange, their share prices are recognized as the market value of the shares.</p>
<p>3.9. Jamiyat aksiyalarini joylashtirish chog'ida ularga haq to'lash qonun hujjatlarida belgilangan tartibda pul va boshqa to'lov vositalari, mol-mulk, shuningdek pulda ifodalanadigan bahoga ega bo'lgan huquqlar (shu jumladan mulkiy huquqlar) orqali amalga oshiriladi. Agar Jamiyatning puldan o'zga vositalar bilan haqi to'lanayotgan aksiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlarining nominal qiymati qonun hujjatlarida belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan ko'pni tashkil etsa, Jamiyatning aksiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlarining haqi sifatida kiritilayotgan mol-mulkning pulda ifodalangan bahosi baholovchi tashkilot tomonidan chiqarilishi zarur.</p>	<p>3.9 When placing the company's shares, their payment is made in the manner prescribed by law in money and other types of payment, property, as well as rights (including property rights) that have a monetary value. If the nominal value of the company's shares and other non-cash securities is two hundred times the statutory minimum wage, then the monetary value of the property contributed as a share in the company's shares and other securities must be issued by the Appraisal organization.</p>
<p>Ustav kapitalini kamaytirish</p>	<p>Reduction of the charter capital</p>
<p>3.10. Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyalarning nominal qiymatini kamaytirish yoki aksiyalarning umumiy sonini qisqartirish yo'li bilan, shu jumladan aksiyalarning bir qismini keyinchalik bekor qilgan holda Jamiyat tomonidan aksiyalarni</p>	<p>3.10 The charter capital (authorized capital) of a company may be reduced by reducing the nominal value of the shares or by reducing the total number of shares, including the acquisition of shares by the company with the subsequent</p>

<p>olish yo'li bilan kamaytirilishi mumkin. Agar ustav fondi (ustav kapitali)ni kamaytirish natijasida uning miqdori qonun hujjatlarida belgilangan eng kam miqdordan kamaytib ketsa, Jamiyat ustav fondi (ustav kapitali)ni kamaytirishga haqli emas.</p>	<p>cancellation of part of the shares. If as a result of the reduction of the charter capital its amount is less than the minimum amount established by the legislation, the company has no right to reduce the authorized capital.</p>
<p>3.11. Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish to'g'risidagi va Jamiyat ustaviga tegishli o'zgartirishlar kiritish haqidagi qarorlar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.</p>	<p>3.11 Decisions on the reduction of the company's charter capital and amendments to the company's charter are made by the general meeting of shareholders.</p>
<p>3.12. Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilinayotganda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish sabablarini ko'rsatadi va uni kamaytirish tartibini belgilaydi.</p>	<p>3.12 The General meeting of shareholders shows the reasons for reducing the charter capital and approves its basis of regulations when the decision is made on the decreasing the charter capital of the Company.</p>
<p>IV. JAMIYAT AKSIYALARINING TURLARI, NOMINAL QIYMATI VA HAR XIL TURDAGI AKSIYALARINING NISBATI</p>	<p>IV. TYPES OF COMPANY SHARES, NOMINAL PRICE AND RATIO OF DIFFERENT TYPES OF SHARES</p>
<p>4.1. Jamiyat nominal qiymati 1 000 (bir ming) so'm bo'lgan oddiy yoki imtiyozli aksiyalarni chiqarish va ularni joylashtirishga haqlidir, bunda imtiyozli aksiyalarning umumiy nominal qiymati Jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) 25 (yigirma besh) foizidan oshmasligi kerak. Aksiyalarga bo'lgan huquqlar aksiyalarni oluvchiga uning depo hisobvarag'iga tegishli kirim yozuvi kiritilgan paytdan e'tiboran o'tadi va qonunchilikda belgilangan tartibda beriladigan depo hisobvarag'idan ko'chirma bilan tasdiqlanadi.</p>	<p>4.1 The Company has the right to issue and place ordinary or preferred shares with a nominal value of 1,000 (one thousand) soums, provided that the total nominal value of the preferred shares does not exceed 25% (twenty five) percent of the charter capital of the Company. Rights to shares are transferred to the recipient of shares from the moment of entry of the relevant entry in his deposit account and are confirmed by a statement from the deposit account issued in the manner prescribed by law.</p>
<p>4.2. Jamiyat qonun hujjatlarida nazarda tutilgan obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni joylashtirishga haqli.</p>	<p>4.2 The company has the right to place bonds and other securities stipulated by the law.</p>
<p>V. AKSIYALAR, ULARNI JOYLASHTIRISH TARTIBI VA SHARTLARI</p>	<p>V. SHARES, TERMS AND CONDITIONS OF THEIR PLACEMENT</p>
<p>5.1. Qo'shimcha aksiyalar Jamiyat tomonidan ushbu Ustavda belgilangan e'lon qilingan aksiyalar soni doirasidagina joylashtiriladi.</p>	<p>5.1 Additional shares may be placed by the company only within the number of authorized shares specified in this Charter.</p>
<p>5.2. Jamiyat ustav fondi (ustav kapitali)ni oshirish maqsadida joylashtirilgan aksiyalariga qo'shimcha ravishda chiqarishi mumkin bo'lgan e'lon qilingan aksiyalari miqdori - nominal qiymati 1 000 (bir ming) so'm bo'lgan 3 000 000 (uch million) dona 3 000 000 000 (uch milliard) so'mlik oddiy aksiyalardan iborat.</p>	<p>5.2 The amount of authorized shares that the Company may issue in addition to the shares placed in order to increase the charter capital is with the nominal value of 1 000 (one thousand) soums, number of 3 000 000 (three million) ordinary shares with the value of 4 000 000 000 (four billion) soums.</p>
<p>5.3. Ustav fondi (ustav kapitali)ni qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish to'g'risidagi qarorda joylashtiriladigan qo'shimcha aksiyalarning umumiy qiymati, soni, turi, nominal</p>	<p>5.3 The total value, number, type, nominal value of additional shares to be placed in the decision to increase the charter capital by placement of additional shares, the order of placement, method,</p>

<p>qiymati, joylashtirish tartibi, usuli, muddati, joylashtirish (aksiyalarning tashkil etilgan qimmatli qog'ozlar savdolariga chiqarish) narxi, aksiyalar uchun to'lov tartibi, amalga oshmagan deb topish ulushi va amalga oshmagan deb topilgan taqdirda aksiyalar uchun qabul qilingan to'lov vositalarini qaytarish tartibi belgilanadi.</p>	<p>term, price of placement (listing of shares on the stock exchange and over-the-counter market), payment procedure for shares the share of earnings and the procedure for returning the means of payment accepted for the shares in case of non-fulfillment.</p>
<p>5.4. Qo'shimcha chiqarilayotgan aksiyalar ochiq va yopiq obuna usullari bilan joylashtiriladi.</p>	<p>5.4 Additional shares will be placed by open and closed subscription methods.</p>
<p>5.5. Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalni) ko'paytirish to'g'risidagi va Jamiyat Ustaviga tegishli o'zgartirishlar kiritish haqidagi qarorlar Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadi.</p>	<p>5.5 Decisions on increasing the authorized capital of the company and making relevant amendments to the company's charter are made by the Supervisory board.</p>
<p>5.6. Jamiyat tomonidan aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan, haqi pul mablag'lari bilan to'lanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni joylashtirishda ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar o'ziga tegishli shu turdagi aksiyalar miqdoriga mutanosib mikdorda ularni imtiyozli olish huquqiga ega.</p>	<p>5.6 When placing shares and securities convertible into shares of the Company as the shareholders who are the owners of voting shares have the right to receive them at a preferential amount in proportion to the amount of such shares owned by them.</p>
<p>5.7. Imtiyozli huquqni qo'llamaslik to'g'risidagi qaror qonunchilikda belgilangan tartibda qabul qilinadi.</p>	<p>5.7 The decision not to apply the preferential right is made in the manner prescribed by law.</p>
<p>5.8. Imtiyozli huquqqa ega bo'lgan shaxslarning ro'yxati qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qaror qabul qilingan sanadagi Jamiyat aksiyadorlari reestrining ma'lumotlari asosida tuziladi.</p>	<p>5.8 The list of persons with preferential rights is compiled on the basis of data from the register of shareholders of the company on the date of the decision to issue securities.</p>
<p>5.9. Aksiyalarni joylashtirish, shu jumladan, aksiyadorlar o'rtasida joylashtirish to'g'risida qaror qabul qilishda aksiyalarni joylashtirish (tashkil etilgan qimmatli qog'ozlar savdolariga chiqarish) narxi qimmatli qog'ozlar savdosi tashkilotchilarining savdo maydonchalarida vujudga kelayotgan narxlar kon'yukturasidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) ko'paytirilayotganda Jamiyatning qo'shimcha aksiyalariga uning o'z kapitali hisobidan, shuningdek haqini qo'shimcha aksiyalar bilan to'lash to'g'risida qaror qabul qilingan dividendlar hisobidan haq to'langan taqdirda, bunday aksiyalarni joylashtirish Jamiyat aksiyalarining nominal qiymati bo'yicha amalga oshiriladi.</p>	<p>5.9 When deciding on the placement of shares, including among shareholders, the price of placement of shares (issuance of securities on the stock market and organized over-the-counter market) is determined based on the price situation on the trading platforms of securities organizers. In case of increasing the charter capital of the Company, additional shares of the company are paid at the expense of its own capital, as well as at the expense of dividends on which the decision to pay additional shares is made, such shares are placed at face value.</p>
<p style="text-align: center;">VI. AKSIYADORLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI</p>	<p style="text-align: center;">VI. RIGHTS AND OBLIGATIONS OF SHAREHOLDERS</p>
<p>6.1. Jamiyat aksiyadorlarining huquqlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • tegishli Jamiyat aksiyadorlarining reestriga kiritilishi; • depo hisobvarag'idan o'ziga taalluqli ko'chirma olish; • Jamiyat foydasining bir qismini dividendlar tarzida 	<p>6.1 Rights of the Company's shareholders:</p> <ul style="list-style-type: none"> • inclusion in the register of shareholders of the relevant company; • Receipt of a statement from the deposit account; • receiving part of the company's profits in the form of dividends;

<p>olish;</p> <ul style="list-style-type: none"> • Jamiyat tugatilgan taqdirda o'zlariga tegishli ulushga muvofiq mol-mulkning bir qismini olish; • aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlarida ovoz berish orqali Jamiyatni boshqarishda ishtirok etish; • Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risida to'liq va ishonchli axborotni belgilangan tartibda olish; • olgan dividendini erkin tasarruf etish; • qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organida, shuningdek sudda o'z huquqlarini himoya qilish; • o'ziga yetkazilgan zararining o'rni qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish; • o'z manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida uyushmalarga va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlariga birlashish; • qimmatli qog'ozlarni olishda zarar ko'rish, shu jumladan boy berilgan foyda ehtimoli bilan bog'liq tavakkalchiliklarni sug'urta qilish huquqiga ega. <p>Aksiyadorlar qonun hujjatlariga va Jamiyat Ustaviga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.</p> <p>Aksiyador tomonidan huquqlarning amalga oshirilishi boshqa aksiyadorlarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi lozim.</p> <p>Aksiyalarni boshqa shaxsga berishga doir cheklov belgilanishi aksiyadori - mazkur aksiyalar egasini ushbu Qonunda belgilangan tartibda Jamiyatni boshqarishda ishtirok etish va ularni bo'yicha dividendlar olish huquqidan mahrum qilmaydi.</p>	<ul style="list-style-type: none"> • in case of liquidation of the company to receive a part of the property in accordance with their share; • participation in the management of the company by voting at the general meetings of shareholders; • Obtaining complete and reliable information on the results of financial and economic activities of the company in the prescribed manner; • free disposal of dividends received; • protection of their rights in the competent state body for regulation of the securities market, as well as in court; • demand compensation for damages in the prescribed manner; • joining associations and other non-governmental non-profit organizations in order to represent and protect their interests; • has the right to insure against risks associated with the loss of securities, including the possibility of lost profits. <p>Shareholders may have other rights in accordance with the legislation and the company's charter.</p> <p>The exercise of rights by a shareholder must not violate the rights and legally protected interests of other shareholders.</p> <p>Restriction on the transfer of shares to another person does not deprive the shareholder's right for participation in company management and receive dividends on them in the manner prescribed by the Law.</p>
<p>6.2. Aksiyadorlar mazkur Ustavda va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo'ladilar.</p>	<p>6.2 Shareholders have other rights provided by this Charter and the legislation.</p>
<p>6.3. Jamiyat aksiyadorlari quyidagi majburiyatlarga ega:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Jamiyatning Ustav qoidalariga va Ustavda ko'rsatilgan tartibda, mikkorda va usulda xissa qo'shish (aksiya haqini to'lash); • Jamiyat faoliyati to'g'risidagi maxfiy ma'lumotlarni tashkil qiluvchi sirlarni fosh qilmaslik; • Minoritar aksiyador hujjatlarni asossiz ravishda talab qilish va maxfiy axborotlar, tijorat sirlarini qo'llash yo'li bilan Jamiyat boshqaruvi faoliyatiga to'sqinlik qilmasligi lozim; • Aksiyador o'ziga oid ma'lumotlardagi o'zgarishlar haqida Jamiyatni, uning aksiyalarga bo'lgan huquqlarini hisobga olish bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi Markaziy depozitariyni va (yoki) 	<p>6.3 The Company's shareholders have the following obligations:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Contribution to the provisions of the Company's Charter and in the manner, amount and manner specified in the Charter (payment of shares); • Non-disclosure of secrets constituting confidential information about the activities of the Company; • The minority shareholder should not interfere with the activities of the director of the company through unreasonable demand for documents and the use of confidential information, trade secrets; • The shareholder must timely notify the company, the Central Securities Depository and (or) the investment intermediary, which provides services

<p>investitsiya vositachisini o'z vaqtida xabardor qilishi shart. Aksiyador o'ziga oid ma'lumotlar o'zgarganligi haqidagi axborotni taqdim etmagan hollarda, Jamiyat, Markaziy depozitariy va investitsiya vositachisi buning oqibatida aksiyadorga yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'lmaydi.</p>	<p>for the registration of its rights to shares, about changes in its information. In the event that the shareholder fails to provide information about the change of personal data, the Company, the Central Depository and the investment intermediary shall not be liable for any damage caused to the shareholder as a result.</p>
<p>6.4. Aksiyadorlar mazkur Ustavda va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarga ham ega bo'ladilar.</p>	<p>6.4 Shareholders also have other obligations provided by this charter and legislation.</p>
<p>VII. DAROMADNI (FOYDANI), DIVIDENDLARNI TAQSIMLASH VA ZARARNI QOPLASH TARTIBI</p>	<p>VII. PROCEDURE FOR DISTRIBUTION OF INCOME, DIVIDEND AND LOSS COVERAGE</p>
<p>7.1. Jamiyat aksiyalarning har bir turi bo'yicha e'lon qilingan dividendlarni to'lashi shart.</p>	<p>7.1 The company is required to pay declared dividends on each type of shares.</p>
<p>7.2. Jamiyat aksiyadorlari umumiy yig'ilishi qaroriga binoan dividend pul mablag'lari yoki boshqa qonuniy to'lov vositalari bilan to'lanishi mumkin. Dividend aksiyadorlar o'rtasida ularga tegishli aksiyalarning soni va turiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.</p>	<p>7.2 Dividends may be paid in cash or other legal ways of payments by the decision of the general meeting of shareholders. Dividends are distributed among shareholders in proportion to the number and type of shares owned by them.</p>
<p>7.3. Jamiyat moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi, to'qqiz oyi natijalariga ko'ra va (yoki) moliyaviy yil natijalariga ko'ra joylashtirilgan aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga haqli. Jamiyatning moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi va to'qqiz oyi natijalariga ko'ra dividendlar to'lash to'g'risidagi qarori tegishli davr tugagandan keyin uch oy ichida qabul qilinishi mumkin.</p>	<p>7.3 The Company has the right to decide on the payment of dividends on shares placed in the first quarter, half-year, nine months of the financial year and (or) according to the results of the financial year. The decision of the Company to pay dividends based on the results of the first quarter, half-year and nine months of the financial year may be made within three months after the end of the relevant period.</p>
<p>7.4. Aksiyalarning har bir turi bo'yicha dividendlar to'lash, dividendning miqdori, uni to'lash shakli va tartibi to'g'risidagi qaror Jamiyat aksiyadorlar umumiy yig'ilishining tavsiyasi, moliyaviy hisobotning ishonchliligi haqida auditorlik xulosasi mavjud bo'lgan taqdirda, moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.</p>	<p>7.4 The decision on the payment of dividends for each type of shares, the size of the dividend, the form and procedure for its payment is made by the general meeting of shareholders on the basis of the financial statements and auditor's opinion.</p>
<p>7.5. Dividendlar to'lash to'g'risidagi qarorda, dividendning miqdori, dividendni to'lash shakli va tartibi hamda uni to'lash muddati ya'ni to'lash boshlanadigan va tugaydigan sanalar ko'rsatilgan bo'lishi lozim.</p>	<p>7.5 The decision on the payment of dividends must specify the amount of the dividend, the form and procedure for payment of the dividend and the date of its payment, means the start and end dates of the payment.</p>
<p>7.6. Dividendlar jamiyatning jamiyat tasarrufida qoladigan sof foydasidan va (yoki) o'tgan yillarning taqsimlangan foydasidan to'lanadi.</p>	<p>7.6 Dividends are paid from the company's net profit of the company and (or) retained earnings of previous years.</p>

<p>7.7. Jamiyat tomonidan oddiy aksiyalar bo'yicha hisoblangan dividendlarni to'lash aksiyadorlarning dividendlarni olishga bo'lgan teng huquqlariga rioya etilgan holda amalga oshiriladi.</p> <p>Dividendlar to'lash to'g'risidagi qarorda dividendlar to'lash boshlanadigan va tugallanadigan sanalar ko'rsatilgan bo'lishi lozim.</p> <p>Dividendlarni to'lash muddati va tartibi jamiyatning ustavida yoki aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarorida belgilanadi. Dividendlarni to'lash muddati shunday qaror qabul qilingan kundan e'tiboran oltmish kundan kech bo'lmasligi lozim.</p> <p>Egasi yoki egasining qonuniy huquqiy vorisi yoxud merosxo'ri tomonidan uch yil ichida talab qilib olinmagan dividend aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra jamiyat ixtiyorida qoladi.</p>	<p>7.7 Payment of dividends accrued by the Company on ordinary shares is carried out in accordance with the equal rights of shareholders to receive dividends.</p> <p>The decision to pay dividends must indicate the dates on which the payment of dividends begins and ends.</p> <p>The terms and procedure for payment of dividends shall be determined by the decision of the general meeting of shareholders. The period for payment of dividends shall not be later than sixty days from the date of such decision.</p> <p>Dividends not claimed by the owner, successor or heir of the owner within three years time period, unclaimed dividends shall be transferred to the company balance at the discretion of the general meeting of shareholders.</p>
<p>7.8. Jamiyat:</p> <ul style="list-style-type: none"> • agar dividendlar to'lanadigan paytda jamiyatda bankrotlik belgilari mavjud bo'lsa yoki jamiyatda shunday belgilar dividendlarni to'lash natijasida paydo bo'lsa; • agar jamiyat sof aktivlarining qiymati uning ustav fondi (ustav kapitali) va zaxira fondi summasidan kam bo'lsa, aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga hamda dividendlar to'lashga haqli emas; • ushbu moddada ko'rsatilgan holatlar tugatilgach, jamiyat hisoblangan dividendlarni aksiyadorlarga to'lashi shart. 	<p>7.8 The Company:</p> <ul style="list-style-type: none"> • if at the time of payment of dividends there are signs of bankruptcy in the company or such signs appear in the company as a result of payment of dividends; • has no right to decide on the payment of dividends on shares and to pay dividends if the value of the company's net assets is less than the amount of its charter capital and reserve fund; • Upon termination of the circumstances specified in this article, the company must pay dividends to shareholders.
<p>7.9. Jamiyat dividendlarning miqdorini ulardan undiriladigan soliqlarni inobatga olmagan holda e'lon qiladi. Jamiyat to'lanadigan dividendlar miqdori to'g'risidagi ma'lumotlarni qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organining va jamiyatning rasmiy veb-saytlarida qonunchilikda belgilangan muddatlarda e'lon qiladi</p>	<p>7.9 The company declares the amount of dividends excluding taxes on dividends. The company publishes information regarding to the amount of dividends to be paid, on the official websites of the authorized state body for regulation of the securities market and the company's website within the period prescribed by law</p>
<p>VIII. ZAHIRA FONDI VA BOSHQA FONDLARNI TASHKIL ETISH TARTIBI</p>	<p>VIII. PROCEDURE FOR FORMATION OF RESERVE FUND AND OTHER FUNDS</p>
<p>8.1. Jamiyat sof foyda hisobidan zaxira fondini hamda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida aniqlanadigan, Jamiyat faoliyati uchun zarur bo'lgan boshqa fondlarni tashkil etadi.</p>	<p>8.1 The company forms a reserve fund at the expense of net profit, as well as other funds determined by the general meeting of shareholders, necessary for the company's activities.</p>
<p>8.2. Jamiyat sof foyda hisobidan o'z ustav kapitalining 15 (o'n besh) foizi miqdorida zaxira fondini tashkil etadi.</p>	<p>8.2 The company creates a reserve fund at the expense of net profit in the amount of 15% of its charter capital.</p>
<p>8.3. Jamiyatning zaxira fondi boshqa mablag'lar mavjud bo'lmagan taqdirda jamiyatning zararlari o'rnini</p>	<p>8.3 In the absence of other funds, the reserve fund of the company is intended to cover the losses of the</p>

qoplash, jamiyatning korporativ obligatsiyalarini muomaladan chiqarish, imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash va jamiyatning aksiyalarini qaytarib sotib olish uchun mo'ljallanadi.	company, the issuance of corporate bonds of the company, the payment of dividends on preferred shares and the repurchase of shares of the company.
8.4. Zaxira fondidan boshqa maqsadlar uchun foydalanish mumkin emas.	8.4 The reserve fund may not be used for other purposes.
8.5. Jamiyatning zaxira fondiga ushbu Ustavning 8.2 - bandida belgilangan miqdorga yetguniga qadar har yili sof foydadan 5 (besh) foizdan kam bo'lmagan miqdorda ajratmalar o'tkazadi.	8.5 The Company shall make contributions to the reserve fund in the amount of not less than 5% of the net profit each year until it reaches the amount specified in paragraph 8.2 of this Charter.
8.6. Zaxira fondi to'laligicha yoki qisman sarflanib bo'lgan hollarda majburiy ajratmalardan tiklanadi.	8.6 In the event of full or partial expenditure of the reserve fund, it is restored from mandatory contributions.
8.7. Jamiyat sof aktivlarining qiymati buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bo'yicha, jamiyat aktivlari va majburiyatlarining umumiy summasi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. Agar ikkinchi moliya yili va undan keyingi har bir moliya yili tugaganidan keyin aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga tasdiqlash uchun taqdim etilgan yillik buxgalteriya balansiga yoki auditorlik tekshiruv natijasiga muvofiq jamiyat sof aktivlarining qiymati uning ustav fondidan (ustav kapitalidan) oz bo'lib chiqsa, jamiyat o'z ustav fondini (ustav kapitalini) sof aktivlari qiymatidan oshib ketmaydigan miqdorgacha kamaytirishi shart. Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish yoki jamiyatni tugatish to'g'risida qaror qabul qilinmagan taqdirda uning aksiyadorlari, kreditorlari, shuningdek vakolatli davlat organlari jamiyatni sud tartibida tugatishni talab qilishga haqli.	8.7 The net asset value of a company is defined as the difference between the total assets and liabilities of the company according to accounting data. If, after the end of the second financial year and each subsequent financial year, the value of the company's net assets is less than its authorized capital (authorized capital) in accordance with the annual balance sheet or an audit submitted for approval to the general meeting of shareholders, the company shall reduce authorised capital till the amount which does not exceed the value of net assets. In the absence of a decision to reduce the company's charter capital (authorized capital) or liquidate the company, its shareholders, creditors, as well as the authorized state bodies have the right to demand the liquidation of the company in court.
IX. JAMIYATNING BOSHQARUV ORGANLARI	IX. MANAGEMENT BODIES OF THE COMPANY
9.1. Jamiyatni boshqaruv organlari quyidagilardan iborat: <ul style="list-style-type: none"> • Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi; • Kuzatuv kengashi (Jamiyat Kengashi); • Ijroiya organi (Jamiyat Boshqaruvi). 	9.1 The governing bodies of the company are: <ul style="list-style-type: none"> • General meeting of shareholders; • Supervisory Board (Company's Board); • Executive body (Company's Management Board).
X. JAMIYAT AKSIYADORLARINING UMUMIY YIG'ILISHI	X. GENERAL MEETING OF THE COMPANY'S SHAREHOLDERS
10.1. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi jamiyatning yuqori boshqaruv organidir	10.1 The general meeting of shareholders is the supreme governing body of the company.
10.2. Jamiyat har yili aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini (aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishini) o'tkazishi shart. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi moliya yili tugaganidan keyin olti oydan kechiktirmay o'tkaziladi.	10.2 The Company must hold an annual general meeting of shareholders (annual general meeting of shareholders). The annual general meeting of shareholders shall be held no later than six months after the end of the fiscal year.

<p>Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishidan tashqari o'tkaziladigan umumiy yig'ilishlari navbatdan tashqari yig'ilishlardir.</p>	<p>Extraordinary general meetings of shareholders held in addition to the annual general meetings.</p>
<p>10.3. Jamiyatning bir foizdan kam bo'lmagan oddiy aksiyalari egalari aksiyadorlar umumiy yig'ilishi kun tartibi, foydani taqsimlash, boshqaruv va nazorat organi a'zoligiga ularning nomzodini (umumiy yig'ilish o'tkazilgunga qadar almashtirish imkoniyati bilan) ko'rsatish yuzasidan taklif kiritish huquqiga ega. Bunday takliflar moliya yili tugaganidan keyin 60 (oltmish) kundan kechiktirmay yozma taqdim etilishi lozim.</p>	<p>10.3 Holders of ordinary shares of the company no less than one percent have the right to make a proposal on the agenda of the general meeting of shareholders, distribution of profits, nomination of their candidate for membership in the executive and supervisory boards (with the possibility of replacement before the general meeting). Such proposals must be submitted in writing no later than 60 days after the end of the fiscal year.</p>
<p>10.4. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida quyidagi masalalar ko'riladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> • kuzatuv kengashini saylash; • taftish komissiyasi (taftishchi) ni saylash; • Jamiyatning yillik hisoboti va biznes-rejasi ijrosi bo'yicha hisobot; • kuzatuv kengashi va ijroiya organining Jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi hisobotlari; • foyda va zararlarini taqsimlash; • Jamiyat kuzatuv kengashining va taftish komissiyasining (taftishchisining) o'z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan Jamiyatni boshqarishga doir qonunchilikda belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan jamiyat kuzatuv kengashining hisobotlarini va taftish komissiyasining (taftishchisining) xulosalarini eshitish. Yig'ilishda qonunchilikka muvofiq boshqa masalalar ham ko'rib chiqilishi mumkin. 	<p>10.4 The following issues will be considered at the annual general meeting of shareholders:</p> <ul style="list-style-type: none"> • election of the member of Supervisory Board; • election of the audit commission (auditor); • annual report of the company and report on the implementation of the business plan; • reports of the supervisory board and the executive body on the measures taken to achieve the strategy of community development; • distribution of profits and losses; • hearing reports of the Company's Supervisory Board and the Audit Commission on issues within its competence, including compliance with the requirements of the legislation governing the company, and the conclusions of the Audit Commission. <p>Other issues may be discussed at the meeting in accordance with the current legislation.</p>
<p>10.5. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini Jamiyat kuzatuv kengashining raisi, u uzrli sabablarga ko'ra bo'lmagan taqdirda esa, Jamiyat kuzatuv kengashining a'zolaridan biri olib boradi.</p>	<p>10.5 In case of absence of the Chairman of the Supervisory Board of the General Meeting of Shareholders for valid reasons, one of the members of the Supervisory Board shall preside.</p>
<p>10.6. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Jamiyat Ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki Jamiyatning yangi tahrirdagi Ustavini tasdiqlash; • Jamiyatni qayta tashkil etish; • Jamiyatni tugatish, tugatuvchini (tugatish komissiyasini) tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash; • kuzatuv kengashining son tarkibini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda belgilash, ularning a'zolarini saylash va a'zolarining vakolatlarini 	<p>10.6 The competence of the general meeting of shareholders includes:</p> <ul style="list-style-type: none"> • make changes and additions to the company's charter or approve a new version of the company's charter; • reorganization of society; • liquidation of the company, appointment of the liquidation commission and approval of the interim and final liquidation balances; • determining the number of members of the Supervisory Board in the manner prescribed by law, electing their members and early termination

<p>muddatidan ilgari tugatish;</p> <ul style="list-style-type: none"> • e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash; • Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish; • taftish komissiyasining a'zolarini saylash va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish, shuningdek taftish komissiyasi (taftishchi) to'g'risidagi nizomni tasdiqlash; • Jamiyatning yillik hisobotini va yillik biznes-rejasini, shuningdek Jamiyat faoliyatining asosiy yo'nalishlari va maqsadidan kelib chiqqan holda jamiyatni o'rta muddatga va uzoq muddatga rivojlantirishning aniq muddatlari belgilangan strategiyasini tasdiqlash; • Jamiyatning foydasi va zararlarini taqsimlash; • Jamiyat kuzatuv kengashining va taftish komissiyasining (taftishchisining) o'z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan Jamiyatni boshqarishga doir qonunchilikda belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan Jamiyat kuzatuv kengashining hisobotlarini va taftish komissiyasining (taftishchisining) xulosalarini eshitish; • imtiyozli huquqni qo'llamaslik to'g'risida O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlarlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni va mazkur Ustavda nazarda tutilgan qarorlar qabul qilish; • aksiyadorlar umumiy yig'ilishining reglamentini tasdiqlash; • aksiyalarni maydalash va yiriklashtirish; • O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuniga asosan balans qiymati yoki olish qiymati bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilinayotgan sana Jamiyat sof aktivlari miqdorining ellik foizidan ortig'ini tashkil etuvchi mol-mulk xususida yirik bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilish; • O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq Jamiyatning affillangan shaxsi bilan bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish; • Jamiyat Korporativ boshqaruv kodeksiga rioya etish majburiyatini olish to'g'risida qaror qabul qilish va xabarni oshkor qilish shaklini tasdiqlash; • Jamiyat mansabdor shaxslarga Korporativ boshqaruv 	<p>of the authority of members;</p> <ul style="list-style-type: none"> • setting the maximum number of authorized shares; • reduction of the authorised capital of the company; • purchase of the company's placed shares; • approval of the organizational structure of the company; • election of members of the inspection commission and early termination of their powers, as well as approval of the regulations for the inspection commission; • approval of the company's annual report, as well as a medium and long-term development strategy of the company, based on the main directions and objectives of the company; • distribution of profit and loss of company; • hearing reports of the Supervisory Board and the Inspection Committee on issues within its competence, including compliance with the requirements of the legislation of the company management and the conclusions of the Inspection committee; • adoption of the Law of the Republic of Uzbekistan "On Joint Stock Companies and Protection of Shareholders' Rights" for not to use preferential rights and the decisions provided for in this Charter; • approval of the Agenda for the General meeting of shareholders; • shredding and enlarging shares; • In accordance with the Law of the Republic of Uzbekistan "On Joint Stock Companies and Protection of Shareholders' Rights", the decision to be made for making large transaction on property with a book value or receivable of more than fifty percent of the company's net assets at the date of the decision; • Making decisions on concluding agreements with the company's affiliates in accordance with the Law of the Republic of Uzbekistan "On Joint Stock Companies and Protection of Shareholders' Rights"; • making a decision on the company's commitment to comply with the Corporate Governance Code and approving the form of disclosure; • has the right to impose disciplinary sanctions specified in the Labor Code of the Republic of Uzbekistan on officials of the company for non-
---	---

<p>kodeksi tavsiyalariga rioya etmaganlik yoki Korporativ boshqaruv kodekda nazarda tutilgan axborotlarni oshkor etmaganlik uchun O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida ko'rsatilgan intizomiy ja,o choralarini ko'llashga haqli;</p> <ul style="list-style-type: none"> • Jamiyat korporativ boshqaruv kodeksi to'g'risidagi, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi to'g'risidagi, Jamiyatning kuzatuv kengashi, ijroiya organi haqidagi va taftish komissiyasi (taftishchisi) to'g'risidagi nizomlarini tasdiqlash; • har yili mustaqil professional tashkilotlar - maslahatchilarni jalb qilgan holda biznes-jarayonlar va loyihalarning Jamiyatning rivojlanish maqsadlariga muvofiqligi yuzasidan tahlil o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish mumkin; • Jamiyatning joriy xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bitimlarni belgilash; • homiylik (hayriya) yoki beg'araz yordam ko'rsatish (olish) tartibi va shartlarini belgilash, ularni oshirish vakolatini ijroiya organiga berish to'g'risida qaror qabul qilish; • elektron pochta orqali (elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan holda), shuningdek, o'z vakolatini vakilga berish yo'li bilan ovoz berish yoki umumiy yig'ilishni videokonferensiya aloqa tarzida o'tkazish tartibini belgilash (tasdiqlash); • sanoq komissiyasi a'zolari soni va shaxsiy tarkibini tasdiqlash; • Jamiyat mablag'lari hisobidan minoritar aksiyadorlik qo'mitasini saqlash xarajatini qoplash (minoritar aksiyadorlik qo'mitasi tuzilgan taqdirda) tartibini belgilash (tasdiqlash); • auditorlik tekshiruvini, shu jumladan xalqaro standartlarga muvofiq auditorlik tekshiruvidan o'tkazish to'g'risida, auditorlik tashkilotini va uning xizmatlariga to'lanadigan haqning eng ko'p miqdorini belgilash haqida qaror qabul qilish; • aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida hisobot beruvchi Jamiyat boshqaruv va nazorat organlari ma'ruzalari (hisobotlari) shakli va mazmuniga bo'lgan talablarni, aksiyadorlar umumiy yig'ilishi davomiyligini belgilash; • qonun hujjatlariga va ushbu Ustavga muvofiq boshqa masalalarni hal etish. 	<p>compliance with the recommendations of the Corporate Governance Code or non-disclosure of information provided for in the Corporate Governance Code;</p> <ul style="list-style-type: none"> • approval of regulations of the company's governing bodies, including internal control, dividend policy, information policy, the procedure for acting in the event of a conflict of interest; • Every year, by inviting independent professional organizations – consultants and experts, may analysis on business processes and projects on the purpose of checking compliance with the development goals of the company; • determination of transactions related to the current economic activity of the company; • determination of the procedure and conditions of sponsorship (charity) or non-discriminatory assistance (receipt), transferring decision making and execution authority to the executive body; • establishment (approval) of the voting procedure by e-mail (confirmed by an electronic digital signature), as well as by delegating his powers to a representative or holding a general meeting in the form of video conferencing; • Approval of the annual business plan of the company in the prescribed manner; • approval of the number and composition of the counting commission • establishment (approval) of the procedure for reimbursement of the costs of maintaining the minority joint-stock committee at the expense of the company (in case of formation of the minority joint-stock committee); • making a decision on the audit, including the audit of financial statements prepared in accordance international auditing standards, setting the maximum amount of remuneration for the audit organization and its services; • determining the requirements for the form and content of reports (reports) of the governing and supervisory bodies of the company reporting at the general meeting of shareholders, the duration of the general meeting of shareholders; • resolve other issues in accordance with the legislation and this Charter.
<p>10.7. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqi aksiyador tomonidan shaxsan yoki uning vakili orqali amalga oshiriladi. Aksiyadorning vakili aksiyadorlarning umumiy</p>	<p>10.7 The right to participate in the general meeting of shareholders is exercised by the shareholder in person or through his representative. A shareholder's representative shall act on the basis</p>

yig'ilishida yozma shaklda tuzilgan ishonchnoma asosida ish yuritadi.	of a power of attorney issued by a shareholder in writing at the general meeting of shareholders.
10.8. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilingan qarorlar qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda Jamiyat korporativ veb-saytida va Korporativ axborot yagona portalida joylashtiriladi. Agar Jamiyat aksiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlari fond birjasining kotirovka varag'iga kiritilgan bo'lsa, mazkur qarorlar birjaning veb-saytida ham joylashtiriladi.	10.8 Decisions made by the general meeting of shareholders shall be posted on the company's corporate website and on the single portal of corporate information within the period established by the law. If the company's shares and other securities are listed on the stock exchange's quotation sheet, these decisions will also be posted on the exchange's website.
10.9. Aksiyadorlar, shu jumladan, minoritar aksiyadorlar ovoz berishda birgalikdagi pozitsiyasini shakllantirish uchun aksiyadorlik bitimini tuzishi mumkin.	10.9 Shareholders, including minority shareholders, may enter into a share agreement to form a joint position in voting.
10.10. Jamiyatning minoritar aksiyadorlari hujjatlarni asossiz ravishda talab qilish va maxfiy axborotlar, tijorat sirlarini qo'llash yo'li bilan Jamiyat boshqaruv organi faoliyatiga to'sqinlik qilmasligi lozim.	10.10 Minority shareholders of the company should not interfere with the activities of the company's governing body through unreasonable demand for documents and the use of confidential information, trade secrets.
10.11. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilingan qarorlar, shuningdek ovoz berish yakunlari ushbu Qonunda hamda jamiyat ustavida nazarda tutilgan tartib va muddatlarda, biroq bu qarorlar qabul qilingan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay aksiyadorlar e'tiboriga yetkaziladi.	10.11 Decisions made by the general meeting of shareholders, as well as the results of voting shall be notified to shareholders in the manner prescribed by law no later than thirty days from the date of these decisions.
10.12. Jamiyat Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi Jamiyatning "Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi to'g'risida"gi Nizom asosida chaqiriladi va o'tkaziladi.	10.12 The General Meeting of Shareholders of the Company is convened and held in accordance with the Regulations on the General Meeting of Shareholders.
XI. JAMIYAT KUZATUV KENGASHI (Jamiyat Kengashi)	XI. SUPERVISORY BOARD OF THE COMPANY (The Company's Board)
11.1. Jamiyatning kuzatuv kengashi jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalarni hal etish bundan mustasno.	11.1 The Supervisory Board of the Company carries out the general management activities of the Company, except for issues related to the competence of the general meeting of shareholders.
11.2. Jamiyat kuzatuv kengashining a'zolari aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan uch yil muddatga saylanadi. Jamiyat kuzatuv kengashi a'zolarining soni 3 (uch) kishidan iborat.	11.2 Members of the Supervisory Board of the Company are elected at the General meeting of shareholders for three-year term. The number of members of the Supervisory Board of the Company is 3 (three).
11.3. Jamiyat kuzatuv kengashining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi: <ul style="list-style-type: none"> Jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida Jamiyat ijroiya organining hisobotini muntazam ravishda eshitib borgan holda Jamiyat faoliyatining 	11.3 The competence of the Supervisory Board of the Company includes: <ul style="list-style-type: none"> setting priorities of the company's activities by regularly hearing the report of the company's executive body regarding the measures taken to achieve the company's development strategy;

ustuvor yoʻnalishlarini belgilash;

- aksiyadorlarning yillik va navbatdan tashqari umumiy yigʻilishlarini chaqirish;
- aksiyadorlar umumiy yigʻilishining kun tartibini tayyorlash, oʻtkaziladigan sana, vaqt va joyni belgilash;
- aksiyadorlarning umumiy yigʻilishi oʻtkazilishi haqida xabar qilish uchun Jamiyat aksiyadorlarining reyestrini shakllantirish sanasini belgilash;
- Jamiyat Ustavining 10.6.- bandida masalalarini aksiyadorlarning umumiy yigʻilishi hal qilishi uchun kiritish;
- mol-mulkning bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;
- Jamiyat Boshqaruvini tuzish, Boshqaruv raisi va aʼzolarini tayinlash hamda jamiyat Boshqaruvi raisi va aʼzolarining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;
- Jamiyatning ijroiya organiga toʻlanadigan haq va (yoki) kompensatsiyalarning miqdorlarini belgilash;
- Jamiyatning yillik biznes-rejasini maʼqullash. Bunda Jamiyatning kelgusi yilga moʻljallangan biznes-rejasi Jamiyat kuzatuv kengashi majlisida joriy yilning 1-dekabridan kechiktirmay maʼqullanishi lozim;
- ichki audit xizmatini tashkil etish, uning xodimlarini tayinlash, va ular bilan belgilangan tartibda mehnat shartnomasini (shartnoma Jamiyat nomidan Jamiyat kuzatuv kengashining raisi yoki kuzatuv kengashi vakolat bergan shaxs tomonidan imzolanadi) tuzish, shuningdek har chorakda uning hisobotlarini eshitib borish;
- Jamiyat ijroiya organining faoliyatiga daxldor har qanday hujjatlardan erkin foydalanish va Jamiyat kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun bu hujjatlarni ijroiya organidan olish. Jamiyat kuzatuv kengashi va uning aʼzolari olingan hujjatlardan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi mumkin;
- auditorlik tekshiruvini oʻtkazish toʻgʻrisida, auditorlik tashkilotini belgilash, uning xizmatlariga toʻlanadigan haqning eng koʻp miqdorini belgilash haqida qaror qabul qilish;
- Jamiyatning taftish komissiyasi aʼzolariga (taftishchisiga) toʻlanadigan haq va kompensatsiyalarning miqdorlari yuzasidan tavsiyalar berish;
- dividend miqdori, uni toʻlash shakli va tartibi yuzasidan tavsiyalar berish;

- calling annual and extraordinary general meetings of shareholders;
- preparing the agenda for the general meeting of shareholders, setting the date, time and venue of the meeting;
- setting a date for the formation of the register of shareholders of the company in order to notify to conduct the general meeting of shareholders;
- to include the issues specified in paragraph 10.6 of the Company's Charter for resolution by the general meeting of shareholders;
- setting the market value of the property;
- formation of the executive body of the company, election (appointment) of its Chairman and members, thus early termination of their powers;
- determination of the amount of fees and (or) compensations to be paid to the executive body of the company;
- approval of the company's annual business plan. In this case, the business plan of the company for the next year must be approved at the meeting of the Supervisory Board of the company no later than December 1 of the current year;
- forming the internal audit service, appointment of its employees and conclusion of an employment contract with them in the prescribed manner (the contract is signed on behalf of the company by the chairman of the supervisory board or a person authorized by the supervisory board), as well as hearing quarterly reports;
- free access to any documents related to the activities of the company's executive body and obtaining these documents from the executive body to perform the tasks assigned by the supervisory board. The Supervisory Board of the Company and its members may use the received documents only for official purposes;
- making a decision to conduct an audit, to determine the maximum amount of payment for the audit organization and its services;
- make recommendations to the members of the company's revision committee on the amount of remuneration and compensation;
- make recommendations on the amount of dividends, the form and procedure for its payment;
- use of the company's reserve fund and other funds;
- establishment of branches and representative

<ul style="list-style-type: none"> • Jamiyatning zaxira fondidan va boshqa fondlaridan foydalanish; • Jamiyatning filiallarini tashkil etish va vakolatxonalarini ochish; • Jamiyatning mikromoliyaviy xizmatlari uchun foiz stavkalarini belgilash; • sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarini tashkil etish (ular aksiyadorlik jamiyati yoki ma'suliyati cheklangan jamiyati shakllarida tuziladi); • aksiyalarni joylashtirish (tashkil etilgan qimmatli qog'ozlar savdolariga chiqarish) narxini belgilash; • qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish; • qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish va tasdiqlash; • avval ro'yhatdan o'tkazilgan qimmatli qog'ozlar chiqarilishlariga o'zgartirish va (yoki) qo'shimchalar kiritish; • qonunchilikda belgilangan hollarda Jamiyat tomonidan yirik bitimlar va Jamiyat affillangan shaxlari bilan bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish; • Jamiyat boshqaruv raisining vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, uning vazifasini vaqtincha bajaruvchini tayinlash; • Jamiyatning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki bilan bog'liq bitimlarni qonunchilikda belgilangan tartibda tuzish; • Jamiyatning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish; • Jamiyat qo'mitalarini tuzish va ularning ishlash tartibi, soni va tarkibi yuzasidan qo'mitalar nizomini tasdiqlash; • Jamiyatning ichki nizom va siyosatlarini tuzish hamda tasdiqlash; • Jamiyatning kredit komissiyasini tashkil etish, uning tarkibini va faoliyat nizomini tasdiqlash. 	<p>offices of the company;</p> <ul style="list-style-type: none"> • setting interest rates for microfinance services of the company; • establishment of subsidiaries and affiliates (they are formed in the form of joint-stock companies or limited liability companies); • setting the price of placement of shares (putting up for organized securities trades); • decision-making on the issue of securities derivatives; • decision-making and approval of the issue of securities; • making changes and (or) additions to previously registered securities issues; • making decisions on major transactions and agreements with affiliates by the company in the frame of legislation; • appointment of an acting Chairman executive of the company in case of early termination of his powers; • conclusion of agreements related to the company's participation in commercial and non-commercial organizations in the manner prescribed by law; • making a decision on repurchasing of the company's corporate bonds; • The order of formation and work of the committees, their number and composition are established by the regulation of the company; • Approval of the Company's internal regulation and its politics; • establishment of the company's credit commission, approval of its composition and charter.
<p>11.4. Jamiyatning kuzatuv kengashi a'zolari saylovi kumulyativ ovoz berish orqali amalga oshiriladi. Kumulyativ ovoz berishda har bir aksiyadorga tegishli ovozlar soni jamiyatning kuzatuv kengashiga saylanishi lozim bo'lgan shaxslar soniga ko'paytiriladi va aksiyador shu tariqa olingan ovozlarni bitta nomzodga to'liq berishga yoki ikki va undan ortiq nomzodlar o'rtasida taqsimlashga haqli. Eng ko'p ovoz to'plagan nomzodlar jamiyat kuzatuv kengashining tarkibiga saylangan deb hisoblanadi.</p>	<p>11.4 The election of the members of the Supervisory Board of the Society shall be by cumulative voting. In cumulative voting, the number of votes for each shareholder is multiplied by the number of persons to be elected to the company's supervisory board, and the shareholder has the right to give the votes in full to one candidate or to distribute them among two or more candidates. The candidates who receive the most votes are considered elected to the company's supervisory board.</p>

<p>11.5. Jamiyat kuzatuv kengashining raisi kuzatuv kengashi a'zolarining umumiy soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan, ushbu kengash tarkibidan kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan saylanadi. Jamiyat kuzatuv kengashi o'z raisini jami a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qayta saylashga haqlidir.</p>	<p>11.5 The Chairman of the Supervisory Board shall be elected by the members of the Supervisory Board by a majority vote of the total number of members of the Supervisory Board from among themselves. The Supervisory Board of the Society shall have the right to re-elect its Chairman by a majority vote of all its members.</p>
<p>11.6. Jamiyat kuzatuv kengashining raisi uning ishini tashkil etadi, kuzatuv kengashi majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi, majlislarda bayonnoma yuritilishini tashkil etadi.</p>	<p>11.6 The Chairman of the Supervisory Board of the Company organizes its work, convenes and chairs the meetings of the Supervisory Board, organizes the minutes of the meeting.</p>
<p>11.7. Jamiyat kuzatuv kengashi raisi yo'q bo'lgan hollarda uning vazifasini kuzatuv kengashi a'zolaridan biri amalga oshiradi.</p>	<p>11.7 In the absence of the Chairman of the Supervisory Board, his duties shall be performed by one of the members of the Supervisory Board.</p>
<p>11.8. Jamiyat kuzatuv kengashi majlislari uning raisi tomonidan har chorakda kamida bir marta chaqiriladi. Zaruriyatga ko'ra Jamiyat kuzatuv kengashining navbatdan tashqari majlislari ham o'tkazilishi mumkin.</p>	<p>11.8 Meetings of the Supervisory Board of the Society are convened by its chairman at least once a quarter. If necessary, extraordinary meetings of the Supervisory Board may be held.</p>
<p>11.9. Jamiyat kuzatuv kengashining qarori kuzatuv kengashga saylangan a'zolarining kamida yetmish besh foizi ishtirok etganda qonuniy hisoblanadi. Jamiyat kuzatuv kengashining majlisida qarorlar, agar qonunchilikda boshqa hollar ko'zda tutilmagan bo'lsa, majlisda hozir bo'lganlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Jamiyat kuzatuv kengashining majlisida masalalar hal etilayotganda kuzatuv kengashining har bir a'zosi bitta ovozga ega bo'ladi. Jamiyat kuzatuv kengashining bir a'zosi o'z ovozini kuzatuv kengashining boshqa a'zosi berishiga haqli emas. Jamiyat kuzatuv kengashi a'zolarining ovozlari teng bo'lgan holda, Jamiyat kuzatuv kengashi raisining ovozi hal etuvchi hisoblanadi.</p>	<p>11.9 The decision of the Supervisory Board of the Company shall be valid if at least seventy-five percent of the elected members to the Supervisory Board are present. Decisions of the meeting of the Supervisory Board of the Company shall be taken by a majority vote of those present at the meeting, unless otherwise provided by law. Each member of the Supervisory Board has one vote when resolving issues at a meeting of the Supervisory Board. One member of the Company's supervisory board shall not have the right to cast his vote for another member of the supervisory board. In the event of an equal, the vote of the Chairman of the Supervisory Board shall be decisive.</p>
<p>11.10. Majlisda kuzatuv kengashi a'zolari video va audio uskunalari orqali konferensiya aloqasi bo'yicha ishtirok etishi mumkin, bunda ularning ovozlari qaror qabul qilish uchun sirdan berilgan deb hisoblanmaydi.</p>	<p>11.10 At the meeting, members of the Supervisory Board may participate in conference calls using video and audio equipment, provided that their votes are not considered to have been cast from the outside for decision-making.</p>
<p>11.11. Kuzatuv kengashi va uning raisi o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z majburiyatlarini bajarishda Jamiyat manfaatlarini ko'zlab ish tutishi lozim. Ular qonun hujjatlariga va ushbu Ustavga muvofiq Jamiyat va uning aksiyadorlari oldida javobgardir.</p>	<p>11.11 The Supervisory Board and its chairman must act in the public interest in exercising their rights and fulfilling their obligations. They are held responsible to the company and its shareholders in accordance with the legislation and this Charter.</p>
<p>11.12. Kuzatuv kengashi mazkur Ustav va aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan "Kuzatuv kengashi to'g'risida"gi nizom asosida ish olib boradi.</p>	<p>11.12 The Supervisory Board operates on the basis of this Charter and the Regulation "About Supervisory Board" approved by the General Meeting of Shareholders.</p>

<p align="center">XII. JAMIYATNING IJROIYA ORGANI (Jamiyat Boshqaruvi)</p>	<p align="center">XII. THE MANAGEMENT BOARD OF THE COMPANY (The Management Board)</p>
<p>12.1. Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik yakkaboshchilik asosidagi ijroiya organi rahbari Boshqaruv raisi tomonidan amalga oshiriladi</p>	<p>12.1 The day-to-day management of the company is carried out by the Chairman of the Management Board.</p>
<p>12.2. Boshqaruv raisi Jamiyatning ijro etuvchi organi hisoblanib, uning kundalik faoliyatini boshqaradi va operativ rahbarlikni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Jamiyat Ustavi, aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarorlariga muvofiq amalga oshiradi.</p>	<p>12.2 The Chairman of the Management Board is the management body of the Company, manages its daily activities and carries out operational management in accordance with the legislation of the Republic of Uzbekistan, the Charter of the Company, the decisions of the general meeting of shareholders.</p>
<p>12.3. Jamiyat Boshqaruv raisi kuzatuv kengashi va aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga hisobot beradi.</p>	<p>12.3 The Chairman of the Management Board is reportable and accountable to the Supervisory Board and the General Meeting of Shareholders.</p>
<p>12.4. Mazkur Ustavga muvofiq Jamiyat Boshqaruvni tuzish, ularni soni va sifat tarkibini tayinlash Jamiyat Kuzatuv kengashi yig'ilishi qaroriga ko'ra amalga oshiriladi.</p>	<p>12.4 In accordance with this Charter, the formation of the Management Board of the Company, the appointment of their quantitative and qualitative composition is carried out by the decision of the Supervisory Board of the Company</p>
<p>12.5. Jamiyat boshqaruvining vakolatlariga Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilishga doir barcha masalalar kiradi, aksiyadorlar umumiy yig'ilishining mutlaq vakolatlariga kiritilgan masalalar bundan mustasno.</p>	<p>12.5 The powers of the Management Board of the Company include all issues related to the management of the daily activities of the Company, with the exception of issues attributed to the exclusive powers of the General Meeting of Shareholders.</p>
<p>12.6. Jamiyatning Boshqaruv raisi aksiyadorlar umumiy yig'ilishining va Jamiyat kuzatuv kengashining qarorlari bajarilishini tashkil etadi.</p>	<p>12.6 The Chairman of the Management Board organizes the implementation of the decisions of the general meeting of shareholders.</p>
<p>12.7. Jamiyat Boshqaruvi raisi faoliyat ko'rsatishi, javobgarligi va u tomonidan qarorlar qabul qilish tartibi qonun hujjatlari, mazkur Ustav hamda Kuzatuv Kengashi bilan tuzilgan mehnat shartnomasida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.</p>	<p>12.7 The activity, responsibility and decision-making procedure of the Chairman of the Management Board shall be carried out in accordance with the legislation, this charter and the employment contract concluded with the Supervisory Board.</p>
<p>12.8. Jamiyat Boshqaruv raisi quyidagi vakolatlar va majburiyatlariga ega:</p> <ul style="list-style-type: none"> • o'zining vakolatlari doirasida Jamiyatning ishiga, kundalik xo'jalik faoliyatiga rahbarlik qilish; • Jamiyat aksiyadorlarning umumiy yig'ilishining roziligiga ko'ra uning ishida maslahat ovozi bilan ishtirok etish; • Jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritish, davlat muassasalari, barcha mulk shakllaridagi korxonalar va tashkilotlarda uning manfaatlarini himoya qilish; • banklarda hisob raqamlar, shu jumladan, valyuta hisob raqamlarini ochish va Jamiyatning bank va boshqa moliya hujjatlarida birinchi imzo vakolati 	<p>12.8 The Chairman of the Management Board has the following powers and responsibilities:</p> <ul style="list-style-type: none"> • to manage the work of the Company, daily economic activities within its authorities; • Participating in General Meeting of Shareholders as the advisory capacity with the consent of the General meeting of Shareholders; • Proceedings on behalf of the company without a power of attorney, protection of its interests in government agencies, enterprises and organizations of all forms of ownership; • signing as the first signature holder for documents on opening bank accounts, including foreign

bilan imzolash;

- o'zining vakolatlari doirasida, Jamiyat mijozlari, korxonalar va tashkilotlar bilan shartnomalar imzolash va bitimlar tuzish;
- o'z vakolatlari doirasida Jamiyatning mol-mulki va pul mablag'larini tassaruf etish;
- shtatlarni belgilash, xodimlarning shtat ro'yhatini tasdiqlash;
- Jamiyatning tarkibiy bo'linmalar to'g'risidagi nizomlar, xodimlarning lavozim yo'riqnomalarini tasdiqlash;
- Jamiyat sho'ba korxonalari, vakolatxonalari, xizmat ko'rsatish ofislari va filiallari uchun majburiy bo'lgan qaror, buyruq va farmoyishlar chiqarish;
- Jamiyat sho'ba korxonalari, vakolatxonalari, xizmat ko'rsatish ofislari va filiallari rahbarlarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish;
- Jamiyat filiallari, xizmat ko'rsatish ofislari va sho'ba korxonalari nizomlarini tasdiqlash va ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;
- Jamiyat filiallari, xizmat ko'rsatish ofislari va sho'ba korxonalarining shtat jadvallari tasdiqlash;
- Jamiyat xodimlarini ishga qabul qilish, ular bilan mehnat shartnomalarini tuzish va bekor qilish, rag'batlantirish hamda ularga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo'llash, xodimlar tomonidan mehnat va ijro intizomini saqlab turilishini ta'minlash;
- Jamiyat nomidan amaldagi qonunchilikka asosan ishonchnomalar berish;
- o'z vakolati doirasida mol-mulki sotib olish va boshqa shaxsga o'tkazish bilan bog'liq bitimlar (umumiy qiymati qaror qabul qilingan sanada Jamiyat sof aktivlarining 15 (o'n besh) foizigacha miqdorni tashkil etadigan bitimlar yoki o'zaro bog'liq bir qancha bitimlar) tuzish, qarz, kredit va garov shartnomalarini tuzish;
- Jamiyatning barcha xodimlari tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan buyruq va farmoyishlar chiqaradi va ko'rsatmalar berish;
- Jamiyat xodimlarining ijtimoiy kafolatlariga rioya qilinishini va ular mehnatini muhofaza qilishni ta'minlash;
- o'z vakolatlari doirasida Jamiyatning samarali va barqaror ishlashini ta'minlangan holda uning joriy faoliyatiga rahbarlik qilish;
- aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qarorlarining bajarilishini tashkil etish;
- Jamiyatni rivojlantirish dasturlari ishlab chiqish va ularni tashkil etish va bajarilishini ta'minlash;

currency accounts, and on banking and other financial documents of the Company;

- within its competence, to sign contracts and agreements with the Company's clients, enterprises and organizations;
- appropriation of property and funds of the company within its competence;
- appointment of staff, approval of the staff list;
- Approval of regulations on structural divisions of the Company, job descriptions of employees;
- Issuance of decisions, orders and directives that are binding on the Company's subsidiaries, representative offices, service offices and branches;
- Appointment and dismissal of heads of subsidiaries, representative offices, service offices and branches of the Company;
- Approval and making amendments of the charters of the Company's branches, service offices and subsidiaries;
- Approval of staffing tables of the company's branches and subsidiaries;
- Recruitment of employees of the Company, conclusion and termination of employment contracts with them, incentives and the application of disciplinary measures against them, ensuring the maintenance of labor and executive discipline by employees;
- Issuance of power of attorney on behalf of the Company in accordance with applicable law;
- enter into transactions related to the acquisition and transfer of property within its competence (agreements with a total value of up to 15% of the Company's net assets on the date of the decision or a number of interrelated transactions), loan, credit and pledge agreements;
- issues orders and instructions that are binding on all employees of the Company;
- Ensuring compliance with the social guarantees of employees and protection of their work;
- managing the current activities of the Company within its competence, ensuring its effective and sustainable operation;
- organizing the execution of decisions of the general meeting of shareholders;
- Forming company's development programs and their execution and implementation;
- Creating of the annual business plan of the Company and its submission to the general

<ul style="list-style-type: none"> • Jamiyatning yillik biznes-rejasini ishlab chiqish va uni loyihalasini joriy yilning 20 noyabrdan kechiktirmay aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga taqdim etish; • Jamiyatning yillik biznes-rejasi bajarilishi bo'yicha har chorakda kuzatuv kengashiga hisobot berish; • Jamiyat Boshqaruv raisi qonunchilik, ushbu Ustav va Jamiyatning me'yoriy hujjatlariga muvofiq boshqa huquq (vakolat) va majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin. 	<p>meeting of shareholders no later than November 20 of this year;</p> <ul style="list-style-type: none"> • Reporting quarterly to the Supervisory Board on the implementation and execution of the annual business plan of the Company; • The Chairman of the Company's Management Board may have other rights (powers) and obligations in accordance with the legislation, this Charter and regulations of the Company.
<p>12.9. Boshqaruv raisi xizmat safari yoki boshqa sabablarga ko'ra ish joyida bo'lmagan vaktida, uning vazifalarini vaqtincha bajaruvchi shaxni tayinlashga Jamiyat kuzatuv kengashining roziligi bilan yo'l qo'yiladi.</p>	<p>12.9 During the absence of the Chairman of the Management Board due to a business trip or for other reasons, the appointment of a person acting on his behalf is allowed with the consent of the Supervisory Board of the company.</p>
<p>12.10. Jamiyat Boshqaruv raisi qonun hujjatlariga va ushbu Ustavga muvofiq Jamiyat oldida javobgardir.</p>	<p>12.10 The Chairman of the Management Board of the company is accountable to the company in accordance with the legislation and this charter.</p>
<p>12.11. Boshqaruv raisi tomonidan ushbu Ustav va mehnat shartnomasi shartlari qo'pol ravishda buzilsa, yohud Jamiyat biznes-rejasining tasdiqlangan ko'rsatkichlarni bajarilishi buzilgan hollarda va uning harakatlari (harakatsizligi) natijasida Jamiyatga keltirilgan zararlar sababli u bilan tuzilgan shartnoma Jamiyat Kengashi yoki aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan muddatidan ilgari bekor qilinishi mumkin.</p>	<p>12.11 Early termination of the contract by the Chairman of the Management Board or the General Meeting of Shareholders in case of gross violation of the terms of this Charter and employment contract, or violation of the approved business plan of the Company and damage to the Company as a result of his actions (inaction) possible.</p>
<p>12.12. Boshqaruv raisining vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan hollarda uning vazifasini vaqtincha bajarish kuzatuv kengashi tomonidan boshqa shaxsga yuklatiladi.</p>	<p>12.12 In case of early termination of the powers of the Chairman of the Management Board, the temporary performance of his duties is entrusted to another person by the Supervisory Board.</p>
<p>12.13. Jamiyat Boshqaruv raisi o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z burchlarini bajarishda Jamiyat manfaatlarini ko'zlab tutishi lozim.</p>	<p>12.13 The Chairman of the Management Board of the Company shall act in the interests of the Company in the exercise of his rights and performance of his duties.</p>
<p>12.14. Jamiyat Boshqaruv raisi mavjud qonunchilik, mazkur Ustav va aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan "Ijroiya organi to'g'risida"gi Nizom asosida ish olib boradi.</p>	<p>12.14 The Chairman of the Management Board shall act in accordance with the existing legislation, this Charter and the Regulations on the Executive Body approved by the General Meeting of Shareholders.</p>
<p align="center">XIII. MOLIYA-XO'JALIK FAOLIYATINI NAZORAT QILISH</p>	<p align="center">XIII. MONITORING OF FINANCIAL AND ECONOMIC ACTIVITIES</p>
<p align="center">Taftish komissiyasi (taftishchi)</p>	<p align="center">Revision Committee</p>
<p>13.1. Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyatini nazorat qilish uchun aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan taftish komissiyasi (taftishchisi) nazarda tutilishi va saylanishi mumkin. Jamiyat taftishchisiga yoki taftish komissiyasi a'zolariga doir malaka talablari aksiyadorlarning</p>	<p>13.1 The Revision committee is elected by the general meeting of shareholders for a period of one year to oversee the financial and economic activities of the company. Qualification requirements for the company's auditor or members of the audit committee shall</p>

umumiy yig'ilishi tomonidan belgilanadi. Ayni bir shaxs ayni bir jamiyatning taftish komissiyasi tarkibiga (taftishchilikka) ketma-ket uch martadan ortiq saylanishi mumkin emas.	be determined by the general meeting of shareholders. The same person may not be elected to the Revision committee of the same company more than three times in a row
13.2. Jamiyat taftish komissiyasining (taftishchisining) faoliyat ko'rsatish tartibi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadigan nizomda belgilanadi.	13.2 The procedure for the activity of the company's Revision committee shall be determined by the regulation approved by the general meeting of shareholders.
13.3. Jamiyat taftishchisi yoki taftish komissiyasining a'zolari bir vaqtning o'zida jamiyat kuzatuv kengashining a'zosi bo'lishi, shuningdek ayni shu jamiyatda mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlashi mumkin emas.	13.3 The company inspector may not simultaneously work in the same company under an employment contract.
13.4. Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish taftish komissiyasining (taftishchining), aksiyadorlar umumiy yig'ilishining, jamiyat kuzatuv kengashining tashabbusiga ko'ra yoki jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) talabiga ko'ra jamiyat kuzatuv kengashini oldindan xabardor qilish yo'li bilan bir yillik yoki boshqa davr ichidagi faoliyat yakunlari bo'yicha amalga oshiriladi.	13.4 The inspection of the financial and economic activities of the company is carried out on the initiative of the general meeting of shareholders or at the request of the shareholder (shareholders) holding at least 5% of the voting shares of the company.
13.5. Taftish komissiyasi (taftishchi) mazkur Ustav va aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadigan "Jamiyat taftish komissiyasi (taftishchisi) to'g'risida"gi nizom asosida ish olib boradi.	13.5 The Revision committee shall act in accordance with this Charter and the Regulations on the Company's Inspection Committee approved by the General Meeting of Shareholders.
Ichki audit xizmati	Internal audit service
13.6. Jamiyat qonun hujjatlariga muvofiq jamiyatda ichki audit xizmati tashkil qilishi mumkin. Ichki audit xizmati Jamiyatning kuzatuv kengashiga hisobdordir.	13.6 The company may establish an internal audit service in the company in accordance with the legislation. The Internal Audit Service is accountable to the Supervisory Board.
13.7. Jamiyatning moliyaviy hujjatlari ishonchiligi va buhgalteriya hisobotini olib borish tartibi o'rnatilgan talablarga mosligini tekshirish uchun Jamiyat aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilingan qarorga asosan Jamiyatning ichki auditori saylanadi.	13.7 The internal auditor of the company is elected by the decision of the general meeting of shareholders to verify the reliability of the company's financial documents and compliance with the established accounting procedures.
13.8. Ichki auditor o'z vakolati doirasida Jamiyat mansabdor shaxslaridan buhgalteriya, moliya va boshqa turdagi Jamiyat faoliyati bilan bog'liq hujjatlarini so'rab olish huquqiga ega.	13.8 The internal auditor has the right to request documents related to accounting, finance and other types of activities of the company from the company's officials within the scope of its authority.
13.9. Jamiyatning yillik hisobotlari va balanslariga ichki auditor o'z hulosalari berishi lozim. Jamiyat o'z faoliyati natijalarini buhgalteriya va statistika hisobotini O'zbekiston Respublikasining qonun va me'yoriy hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi.	13.9 The internal auditor is required to provide an opinion on the company's annual reports and balance sheets. The Company carries out accounting and statistical reporting on the results of its activities in accordance with the laws and

	regulations of the Republic of Uzbekistan.
13.10. Jamiyatning faoliyat yakunlari belgilangan tartibda tuziladigan hisobotlarda aks ettiriladi.	13.10 The results of the Company's activities are reflected in the reports prepared in the prescribed manner.
Auditorlik tashkiloti (tashqi auditor)	Audit company (external auditor)
13.11. Auditorlik tashkiloti Jamiyat bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq qonunchilikda belgilangan tartibda Jamiyat moliya-xo'jalik faoliyatining tekshirilishini amalga oshiradi va unga auditorlik xulosasini taqdim etadi.	13.11 The audit company in accordance with the agreement with the Company in the manner prescribed by law inspects the financial and economic activities of the Company and provides an audit report to the Company.
13.12. Auditorlik tashkiloti Jamiyatning moliyaviy hisoboti va moliyaga doir boshqa axborot haqidagi noto'g'ri xulosani o'z ichiga olgan auditorlik xulosasi tuzilganligi oqibatida yetkazilgan zarar uchun Jamiyat oldida javobgar bo'ladi.	13.12 The audit company shall be liable to the Company for the damages caused as a result of drawing up the audit report, which contains an incorrect conclusion on the financial statements of the Company and other financial information.
XIV. KORPORATIV MASLAHATCHI	XIV. CORPORATE CONSULTANT
14.1. Jamiyatda korporativ maslahatchi lavozimi joriy etilishi mumkin.	14.1 The corporate adviser position may be created in the company.
14.2. Korporativ maslahatchi Jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan tayinlanadi va unga hisobdordir.	14.2 The Corporate Adviser is appointed by the Supervisory Board of the Company and is accountable to them.
14.3. Korporativ maslahatchi Jamiyat va uning aksiyadorlari hamda investorlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtirish, Jamiyat faoliyatida korporativ boshqaruv masalalariga oid vazifalarni bajarishni tashkillashtiradi va nazorat qiladi.	14.3 Corporate Advisor Coordinates the relationship between the Company and its shareholders and investors, organizes and monitors the implementation of tasks related to corporate governance in the activities of the Company.
14.4. Jamiyat korporativ maslahatchisining faoliyati Jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan Nizom asosida amalga oshiriladi.	14.4 The activity of the corporate adviser is determined by the Regulation "On the corporate consultant" approved by the general meeting of shareholders of the Company.
XV. JAMIYATNI QAYTA TASHKIL ETISH VA TUGATISH	XV. REFORMING AND TERMINATION OF THE COMPANY
Jamiyatni qayta tashkil etish tartibi	The rules for reforming the company
15.1. Jamiyatni qayta tashkil etish aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra, shuningdek, amaldagi qonun hujjatlari bilan belgilangan hollarda va tartibda qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish va o'zgartirish shaklida amalga oshiriladi.	15.1 Reorganization of the company (including: merger, acquisition, dividing, separation, reorganization) is carried out on the basis of the decision of the general meeting of shareholders, as well as in cases and in the manner prescribed by applicable law.
Jamiyatni tugatish tartibi	The order of liquidation of the company
15.2. Jamiyatni tugatish aksiyadorlarning umumiy yig'ilishining qarori asosida, shuningdek, amaldagi qonun hujjatlari bilan belgilangan hollarda va tartibda amalga oshiriladi. Jamiyatni tugatish uning huquq, va majburiyatlari huquqiy vorislik tartibida boshqa shaxsga o'tmagan holda Jamiyat faoliyatining to'xtatilishiga olib keladi.	15.2 The liquidation of the company is carried out on the basis of the decision of the general meeting of shareholders, as well as in cases and in the manner established by the current legislation. Termination of the Company's activities entails the termination of the Company's activities without transferring its rights and obligations to other persons in the order of succession.

Faint, illegible text, likely bleed-through from the reverse side of the document.



[Handwritten signature]



ЖАРМИ (86) БАРАК
САХИФАЛАНДИ ИИ БИЛАДИ
ТЎҚУНДИН ВА МУХРИЛАНДИ